XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHI
Q A R O R I

150100, Farg‘ona sh., Alisher Navoiy k., 15-uy, tel: (73) 244-07-35, e-mail: info@ferghana.uz, www.ferghana.uz

2024 - yil 5 - fevral VI-64-22-11-0-K/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

Viloyatda 2024 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi haqida

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan imtiyozli resurslar, mexanizm va yengilliklardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali aholi bandligini ta’minlash, iqtisodiyot tarmoqlarida rasmiy band bo‘lgan fuqarolarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024 yil 9 yanvardagi “2024 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7 sonli qarori qarori qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur qarori bilan, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan mas’ul vazirliklar, idoralar, tijorat banklari, viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2024 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi ma’qullangan.

Shuningdek, viloyatlar hokimliklari ikki hafta muddatda tuman (shahar)lar kesimida choraklik maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqib, ularning mahalliy Kengashlarda muhokamadan o‘tkazilishini va hududiy (manzilli) dasturlarning qabul qilinishini ta’minlashi belgilangan.

Shunga ko‘ra, viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi 2024 yil 17 yanvardagi 32/00-01/189-sonli xat bilan murojaat qilib, viloyatda 2024 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi loyihasi (keyingi o‘rinlarda – Dastur loyihasi) va bu borada

amalga oshiriladigan ishlar, ko‘riladigan ta’sir choralari yuzasidan axborot kiritib, mazkur masalani xalq deputatlari viloyat Kengashida muhokama qilish va Dastur loyihasini qabul qilishni so‘ragan.

Xususan, viloyatning tuman (shahar)larida 2024 yil uchun aholini daromad keltiradigan mehnat bilan band qilish bo‘yicha oyma-oy va tarmoqlar kesimida maqsadli ko‘rsatkichlari shakllantirilib, shunga ko‘ra viloyat bo‘yicha 328 465 nafar aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish rejalashtirilgan.

Jumladan, investisiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga 23 631 nafar, qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligi sohasida 173 662 nafar, moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga 120 000 nafar aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan aholini biznesga jalb qilish hisobiga jami 181 000 nafar, shundan o‘zini o‘zi band qilish hisobiga 84 000 nafar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga 10 700 nafar, yangi korxonalarni tashkil etish hisobiga 8 300 nafar, dehqon xo‘jaliklari hisobiga 78 000 nafar aholini doimiy ishlarda band qilish ko‘zda tutilgan.

Dasturda belgilangan parametrlar, prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida, tizimli va samarali bajarilishida albatta joylarda mahalliy ijro hokimiyati organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va keng jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va javobgarlik mexanizmlaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Viloyatda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan imtiyozli resurslar, mexanizm va yengilliklardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali aholi bandligini ta’minlash, mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnat muhofazasini kuchaytirish, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha muvofiqlashtirilgan samarali ishlarni amalga oshirishda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlarining mas’uliyatini yanada kuchaytirish, bu borada deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidyentining 2024 yil 9 yanvardagi “2024

yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7 sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan, viloyatlar hokimliklari ikki hafta muddatda tuman (shahar)lar kesimida choraklik maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqib, ularning mahalliy Kengashlarda muhokamadan o‘tkazilishini va hududiy (manzilli) dasturlarning qabul qilinishini ta’minlashi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyatda 2024 yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish bo‘yicha shakllantirilgan prognoz ko‘rsatkichlari to‘g‘risida viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i Abdullayev Anvarjon Aliyevichning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Viloyatda 2024 yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari (keyingi o‘rinlarda – maqsadli ko‘rsatkichlar) viloyat ishchi komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilib, tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Quyidagilar:

2024 yilda aholining doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta’minlashning yig‘ma maqsadli ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2024 yilda yirik va hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga yangi ish o‘rinlarini tashkil etishning maqsadli ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2024 yilda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil etishning maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq;

2024 yilda qishloq xo‘jaligi sohasida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq;

2024 yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari 5-ilovaga muvofiq;

2024 yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning maqsadli ko‘rsatkichlari 6-ilovaga muvofiq;

yangi moliyaviy xizmat turlarini joriy qilish, shu jumladan mikromoliyalashni kengaytirish orqali 2024 yilda 181 ming nafar aholini biznesga jalb qilishning

maqsadli ko‘rsatkichlari 7-ilovaga muvofiq;

2024 yilda davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan subsidiyalar ajratishning maqsadli ko‘rsatkichlari 8-ilovaga muvofiq;

6. Maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish yuzasidan quyidagi idoralar rahbarlari tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin:

Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Yuldashev) hamda tuman (shahar)lar hokimlari - yirik va hududiy investisiya loyihalarni amalga oshirish hisobiga 23 631 ta ish o‘rni yaratishga;

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) hamda tuman (shahar)lar hokimlari - xizmat ko‘rsatish yo‘nalishi bo‘yicha 120 000 ta ish o‘rni yaratishga;

Viloyat hokimining o‘rinbosari A.Tursunov, Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Kadirov), viloyat Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (B.Abduraxmonov) hamda tuman (shahar)lar hokimlari - qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi bo‘yicha 173 662 ta ish o‘rni yaratishga;

Viloyat hokimining o‘rinbosari X.Isaqov, Qurilish va uy-joy kommunal ho‘jaligi boshqarmasi (L.Pozilov) hamda tuman (shahar)lar hokimlari - qurilish yo‘nalishi bo‘yicha 11 172 ta ish o‘rni yaratishga;

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (A.Abdullayev) - bandlik organlari tomonidan aholi bandligini ta’minlash va yaratilgan ish o‘rinlari hisobini yuritish bo‘yicha;

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, Markaziy bank bosh boshqarmasi (Sh.Do‘saliyev) va viloyatdagi tijorat banklar rahbarlari - yangi moliyaviy xizmatlarni joriy qilish, shu jumladan mikromoliyalashni kengaytirish orqali 2024 yilda viloyatda 181 ming nafar aholini biznesga jalb qilish bo‘yicha.

Bunda, ushbu bandda ko‘rsatilgan mas’ul boshqarma, idora va xo‘jalik birlashmalari hamda tuman (shahar)lar hokimliklari har oy yakuniga ko‘ra keyingi oyning birinchi sanasiga qadar soliq organlari ma’lumotlar bazasi bilan solishtirgan holda tegishli ma’lumotlarni umumlashtirish uchun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasiga taqdim etib boriladi.

7. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov Kambag‘allikni

qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (A.Abdullayev), Soliq boshqarmasi (M.Mamaxonov), Statistika boshqarmasi (Sh.Mamadaliyev) - mas’ul davlat organlari va tashkilotlari hamda tuman (shahar) hokimliklari tomonidan maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida, samarali va tizimli bajarilishini nazorat qilsin va muvofiqlashtirib borsin.

Bunda, har haftada “Hokimlik soatlari” va boshqa idoraviy kengaytirilgan yig‘ilishlarda maqsadli ko‘rsatkichlarni bajarilishi borasida mas’ullar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy muhokama etib boriladi hamda har chorakda Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilish bo‘yicha respublika komissiyasi hamda xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot kiritib boriladi.

8. Barcha tuman (shahar) hokimlari mavjud ish o‘rinlari bo‘yicha aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar, shu jumladan bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha mehnat yarmarkalarining tashkil etish, kasb-hunarga o‘qitish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish va alohida toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish, bu borada mavjud imkoniyatlardan keng va samarali foydalanish choralarini ko‘rib borsin.

Bunda,

mehnat yarmarkalarini samarali tashkil etish, yarmarkalarga aholini ko‘proq qismini qamrab olish orqali ularni ishga joylashtirish;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlaridan maqsadli va samarali foydalanish;

kasbga tayyorlash kurslarini samarali va tizimli tashkil etish, bunda aholini ko‘proq jalb qilish hamda mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida va samarali o‘tishini doimiy nazorat qilib borish;

mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini sabablarini tahlil qilish va kelgusida uni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbir ishlab chiqish vazifalari yuklansin.

9. Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (A.Abdullayev) har oyning 15-sanasiga qadar Dastur doirasida yaratilgan yangi ish o‘rinlari va bandligi ta’minlangan aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni idoralararo elektron axborot almashinuvi orqali Soliq boshqarmasiga taqdim etib borsin.

10. Viloyat Soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov) har oyning 20-sanasiga qadar aholi bandligi va ish o‘rinlari hisobining haqqoniyligini tekshirib, natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni viloyat hokimligi hamda xalq deputatlari viloyat Kengashiga kiritib borsin.

11. Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (A.Abdullayev), Soliq boshqarmasi (M.Mamaxonov) hisobot davrida yaratilgan ish o‘rinlari soni tahlili jarayonida tegishli sohalar tomonidan yaratilgan ish o‘rinlarini xisobotlarga takroran qo‘shish orqali ko‘rsatkichlarni sun’iy oshirish holatlarini oldini olish bo‘yicha ta’sirchan choralarni ko‘rib borsin.

12. O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Yuldashev), Tadbirkorlik sub’yektlarining huquqlari va qonun manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha viloyat vakili (M.Po‘latov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Investisiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (B.Toshtemirov), tegishli boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda bir hafta muddatda hududlarda sayyor qabullar o‘tkazish reja-jadvalini tasdiqlasin, tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan ko‘tarilgan masalalarni joyida hal qilish choralarini ko‘rib borsin va murojaatlar tahlili asosida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha viloyat hokimligi va Vazirlar Mahkamasiga har oyda takliflar kiritib borsin.

13. Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (A.Abdullayev) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda joriy yilning 1-choragida tashkil etiladigan mehnat yarmarkalari reja-jadvalini ishlab chiqilib, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar orqali keng jamoatchilikka ma’lum qilsin.

14. Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (A.Abdullayev), Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi (E.Nuraliyev) mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan nazorat tadbirlarini samarali tashkil etib borsin, aniqlangan qonunbuzilish holatlarini sabablarini tahlil qilib, kelgusida uni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbir belgilab borsin.

15. Belgilansinki, har chorak yakuni bilan Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘limlari rahbarlarining hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tegishincha xalq deputatlari mahalliy

kengash sessiyalarida hisobotlari tinglab borilsin.

16. Xalq deputatlari viloyat Kengashi doimiy komissiyalari raislari maqsadli ko‘rsatkichlarni bajarilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tarmoqlar kesimida nazorat qilish bo‘yicha alohida reja ishlab chiqsin hamda doimiy komissiya yig‘ilishlarida doimiy ravishda muhokama qilib borsin.

17. Viloyatda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish maqsadida:

2024 yilda yirik va hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga tashkil etiladigan yangi ish o‘rinlari prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan - xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi;

2024 yilda xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta’minlash prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan - Xalq deputatlari viloyat Kengashining “Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi;

2024 yilda qishloq xo‘jaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan - xalq deputatlari viloyat Kengashining “Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha” doimiy komissiyasi;

2024 yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan - Xalq deputatlari viloyat Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi;

2024 yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilishi yuzasidan - xalq deputatlari viloyat Kengashining “Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi;

2024 yilda aholini biznesga jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilishi yuzasidan - xalq deputatlari viloyat Kengashining “Ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha” hamda “Yoshlar siyosati, madaniyat va sport

masalalari bo‘yicha” doimiy komissiya doimiy komissiyalari;

2024 yilda davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan subsidiyalar ajratishning maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilishi yuzasidan - xalq deputatlari viloyat Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiyalari biriktirilsin.

18. Belgilansinki, xalq deputatlari viloyat Kengashining doimiy komissiyalari tomonidan:

- uch kun muddatda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tarmoqlar kesimida nazorat qilish bo‘yicha alohida reja ishlab chiqiladi;

- maqsadli ko‘rsatkichlar bajarilishi yuzasidan hududlarda monitoring o‘rganishlar olib boriladi;

- mas’ul boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi;

- maqsadli ko‘rsatkichlarni to‘liq, samarali va tizimli bajarilishi yuzasidan deputatlik nazorati olib boriladi, bu borada deputatlik so‘rovlaridan samarali foydalangan holda mas’ul boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklariga ko‘maklashiladi;

- har oy yakuni bilan keyingi oyning 5 sanasiga qadar maqsadli ko‘rsatkichlar bajarilishi yuzasidan doimiy komissiyalar majlislarida tanqidiy muhokama qilib boriladi;

- har chorak yakuni bilan maqsadli ko‘rsatkichlarni bajarilishi, bu borada aniqlangan muammo va kamchiliklar yuzasidan tegishli axborotlar xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalariga kiritib boriladi.

19. Xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlari deputatlari O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan huquq va majburiyatlaridan foydalangan holda o‘z saylov okruglarida 2024 yilda viloyatda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash dasturi ijrosi yuzasidan qat’iy deputatlik nazorati tadbirlarini olib borsin hamda aniqlangan muammolar yuzasidan doimiy ravishda tegishli doimiy komissiyalar majlislari hamda Kengash sessiyalariga kiritib borsin.

20. Xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlari 2024 yilda viloyatda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash dasturi ijrosini o‘z vaqtida, sifatli va tizimli amalga oshirilishi yuzasidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatsin.

Bunda,

- har oyda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar (tadbirlar)ni monitoring qilgan holda o‘rganib borish, natijalarini mahalliy Kengashlarning tegishli doimiy komissiyalari majlislarida muhokama etib borish;

- har chorak yakuni bilan mas’ul rahbarlar, hokimliklarning tegishli o‘rinbosarlarini Kengash sessiyalarida tinglab borsin hamda ular faoliyati samaradorligini baholab borsin.

21. Dastur ijrosiga mas’ul bo‘lgan boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida, sifatli va tizimlik bajarilishi yuzasidan mahalliy Kengash deputatlari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘ysin.

Bunda, hamkorlikda jamoatchilik nazorati tadbirlari olib boriladi, deputatlar tomonidan olib boriladigan monitoring o‘rganishlarda ularga zarur shart-sharoitlar yaratib beriladi, shuningdek deputatlik so‘rovlariga aniq va o‘z vaqtida javob berib boriladi.

22. Viloyat hokimligi axborot xizmati (D.Djumabayev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (I.Halimbekov) viloyatdagi telekanallar, bosma va elektron ommaviy axborot vositalari orqali viloyat hududlarida yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yoritib borsin.

23. Mazkur kengash qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining barcha doimiy komissiyalari raislari hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengash raisi **X. Bozarov**

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-64-22-11-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

2024 yilda aholini doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta’minlash prognoz parametrlari

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:			sohalar kesimida:											
			Doimiy	Mavsumiy	Vaqtinchalik	Investisiyalar mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga	*shundan:*		Xizmat ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga	*shundan:*		Qishloq xo‘jaligida	*shundan:*		Qurilish sohasida	*shundan:*	
							Yirik (tarmoq) investisiya loyihalari	*Xududiy investisiya loyihalari*		*Doimiy*	*Vaqtinchalik*		*Doimiy*	*Mavsumiy*		*Doimiy*	*Vaqtinchalik*
12	**Farg‘ona v.**	**328 465**	**105 373**	**156 523**	**66 569**	**23 631**	**3 320**	**20 311**	**120 000**	**60 740**	**59 260**	**173 662**	**17 139**	**156 523**	**11 172**	**3 863**	**7 309**
1	Farg‘ona sh.	**15 845**	8 784	1 161	5 900	**3 060**	*430*	*2 630*	**10 000**	**5 071**	*4 929*	**1 268**	*107*	*1 161*	*1 517*	*546*	*971*
2	Qo‘qon sh.	**12 205**	6 537	0	5 668	**1 147**	*140*	*1 007*	**10 000**	**5 010**	*4 990*	**0**	*0*	*0*	*1 058*	*380*	*678*
3	Marg‘ilon sh.	**9 764**	5 010	0	4 754	**380**	*60*	*320*	**8 800**	**4 431**	*4 369*	**0**	*0*	*0*	*584*	*199*	*385*
4	Quvasoy sh.	**11 373**	4 603	3 862	2 908	**986**	*160*	*826*	**5 100**	**2 540**	*2 560*	**4 761**	*899*	*3 862*	*526*	*178*	*348*
5	Beshariq t.	**20 651**	5 027	12 613	3 011	**793**	*100*	*693*	**5 500**	**2 749**	*2 751*	**13 972**	*1 359*	*12 613*	*386*	*126*	*260*
6	Bog‘dod t.	**19 683**	4 907	11 688	3 088	**648**	*110*	*538*	**5 600**	**2 835**	*2 765*	**12 951**	*1 263*	*11 688*	*484*	*161*	*323*
7	Buvayda t.	**17 963**	4 790	10 044	3 129	**721**	*100*	*621*	**5 500**	**2 774**	*2 726*	**11 121**	*1 077*	*10 044*	*621*	*218*	*403*
8	Dang‘ara t.	**19 513**	5 393	10 896	3 224	**1 130**	*160*	*970*	**5 900**	**2 954**	*2 946*	**12 066**	*1 170*	*10 896*	*417*	*139*	*278*
9	Yozyovon t.	**17 633**	4 738	9 824	3 071	**617**	*90*	*527*	**5 800**	**2 926**	*2 874*	**10 889**	*1 065*	*9 824*	*327*	*130*	*197*
10	Quva t.	**21 816**	5 998	12 268	3 550	**1 456**	*180*	*1 276*	**6 200**	**3 127**	*3 073*	**13 437**	*1 169*	*12 268*	*723*	*246*	*477*
11	Qo‘shtepa t.	**17 344**	5 002	9 406	2 936	**1 048**	*110*	*938*	**5 300**	**2 774**	*2 526*	**10 380**	*974*	*9 406*	*616*	*206*	*410*
12	Oltiariq t.	**18 936**	5 473	10 153	3 310	**1 307**	*100*	*1 207*	**5 900**	**2 981**	*2 919*	**11 140**	*987*	*10 153*	*589*	*198*	*391*
13	Rishton t.	**17 418**	4 770	9 304	3 344	**581**	*150*	*431*	**6 000**	**3 032**	*2 968*	**10 268**	*964*	*9 304*	*569*	*193*	*376*
14	So‘x t.	**9 032**	3 709	2 545	2 778	**708**	*80*	*628*	**5 200**	**2 607**	*2 593*	**2 843**	*298*	*2 545*	*281*	*96*	*185*
15	Toshloq t.	**20 151**	6 023	10 887	3 241	**1 647**	*280*	*1 367*	**6 100**	**3 076**	*3 024*	**12 069**	*1 182*	*10 887*	*335*	*118*	*217*
16	O‘zbekiston t.	**20 736**	6 219	11 046	3 471	**1 676**	*410*	*1 266*	**6 300**	**3 187**	*3 113*	**12 220**	*1 174*	*11 046*	*540*	*182*	*358*
17	Uchko‘prik t.	**21 277**	7 353	10 609	3 315	**2 949**	*200*	*2 749*	**5 900**	**3 037**	*2 863*	**11 739**	*1 130*	*10 609*	*689*	*237*	*452*
18	Farg‘ona t.	**20 537**	5 499	12 376	2 662	**1 260**	*230*	*1 030*	**4 800**	**2 543**	*2 257*	**13 862**	*1 486*	*12 376*	*615*	*210*	*405*
19	Furqat t.	**16 588**	5 538	7 841	3 209	**1 517**	*230*	*1 287*	**6 100**	**3 086**	*3 014*	**8 676**	*835*	*7 841*	*295*	*100*	*195*

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-64-22-11-0-K/24-son qaroriga
2-ilova

2024 yilda yirik va hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga tashkil etiladigan yangi ish o‘rinlari

PROGNOZ PARAMETRLARI

№	Hududlar nomi	JAMI	*jumladan:*							
			Yirik *(tarmoq)* **investisiya loyihalari**	*shundan:*			**Xududiy investisiya loyihalari**	*shundan:*		
				Sanoatda	*Xizmat ko‘rsatish*	*Qishloq xo‘jaligi*		*Sanoatda*	*Xizmat ko‘rsatish*	*Qishloq xo‘jaligi*
12	**Farg‘ona v.**	**23 631**	**3 320**	**3 095**	**175**	**50**	**20 311**	**13 123**	**5 741**	**1 447**
1	Farg‘ona sh.	**3 060**	**430**	*400*	*30*		**2 630**	*2 165*	*465*	
2	Qo‘qon sh.	**1 147**	**140**	*120*	*20*		**1 007**	*747*	*260*	
3	Marg‘ilon sh.	**380**	**60**	*40*	*20*		**320**	*168*	*152*	
4	Quvasoy sh.	**986**	**160**	*130*	*30*		**826**	*605*	*194*	*27*
5	Beshariq t.	**793**	**100**	*100*			**693**	*476*	*171*	*46*
6	Bog‘dod t.	**648**	**110**	*110*			**538**	*273*	*209*	*56*
7	Buvayda t.	**721**	**100**	*100*			**621**	*380*	*190*	*51*
8	Dang‘ara t.	**1 130**	**160**	*140*	*20*		**970**	*592*	*298*	*80*
9	Yozyovon t.	**617**	**90**	*90*			**527**	*321*	*163*	*43*
10	Quva t.	**1 456**	**180**	*175*	*5*		**1 276**	*781*	*406*	*89*
11	Qo‘shtepa t.	**1 048**	**110**	*110*			**938**	*531*	*300*	*107*
12	Oltiariq t.	**1 307**	**100**	*100*			**1 207**	*720*	*384*	*103*
13	Rishton t.	**581**	**150**	*150*			**431**	*151*	*206*	*74*
14	So‘x t.	**708**	**80**	*80*			**628**	*331*	*205*	*92*
15	Toshloq t.	**1 647**	**280**	*250*	*30*		**1 367**	*1 072*	*254*	*41*
16	O‘zbekiston t.	**1 676**	**410**	*400*	*10*		**1 266**	*595*	*466*	*205*
17	Uchko‘prik t.	**2 949**	**200**	*200*			**2 749**	*2 008*	*542*	*199*
18	Farg‘ona t.	**1 260**	**230**	*200*		*30*	**1 030**	*480*	*434*	*116*
19	Furqat t.	**1 517**	**230**	*200*	*10*	*20*	**1 287**	*727*	*442*	*118*

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-64-22-11-0-K/24-son qaroriga
3-ilova

2024 yilda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil etishning maqsadli ko‘rsatkichlari

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:		jumladan:																										
			Doimiy	vaqtinchalik	Xizmat ko‘rsatuvchi sub’yektlarda tashkil etilgan ish o‘rinlari *(yuridik va YATTlardagi yangi ish o’rni)*	Jumladan:		shundan:																				Xizmatlar sohasida o‘zini o‘zi band qilish	Jumladan:		Norasmiy ish o‘rinlarini rasmiy sektorga o‘tkazish
						Doimiy	vaqtinchalik	*Moliyaviy xizmatlar*	*Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari*	*Transport xizmatlari*	*Qishloq xo’jaligi xizmatlari sohasida*	*Mehmonxona va turizm xizmatlari*	*Ijtimoiy sohalar*		*Umumiy ovqatlanish*	*shundan:*		*Savdo*	*shundan:*		*Maishiy xizmatlar*	*shundan:*		*Boshqa xizmat ko’rsatish*	*shundan:*			Doimiy	Mavsumiy	
													Ta’lim xizmatlari	*Sog‘liqni saqlash xizmatlari*		*Doimiy*	*Vaqtin-chalik*		*Doimiy*	*Vaqtin-chalik*		*Doimiy*	*Vaqtin-chalik*		*Doimiy*	*Vaqtin-chalik*				
12	**Farg‘ona v.**	**120 000**	**60 740**	**59 260**	**30 000**	**16 220**	**13 780**	**27**	**87**	**180**	**148**	**341**	**663**	**1 084**	**1 080**	**530**	**550**	**4 964**	**2 470**	**2 494**	**1 854**	**920**	**934**	**19 572**	**9 770**	**9 802**	**65 000**	**19 520**	**45 480**	**25 000**
1	Farg‘ona sh.	**10 000**	**5 071**	**4 929**	**2 500**	**1 361**	**1 139**		*10*	*30*		*50*	*10*	*125*	*50*	*25*	*25*	*400*	*200*	*200*	*4*	*2*	*2*	*1 821*	*909*	*912*	*5 417*	*1 627*	*3 790*	*2 083*
2	Qo’qon sh.	**10 000**	**5 010**	**4 990**	**2 500**	**1 300**	**1 200**			*18*		*7*	*17*	*70*	*15*	*7*	*8*	*260*	*128*	*132*	*14*	*7*	*7*	*2 099*	*1 046*	*1 053*	*5 417*	*1 627*	*3 790*	*2 083*
3	Marg‘ilon sh.	**8 800**	**4 431**	**4 369**	**2 200**	**1 168**	**1 032**	*5*				*30*	*64*	*44*	*22*	*11*	*11*	*356*	*176*	*180*	*341*	*170*	*171*	*1 338*	*668*	*670*	*4 767*	*1 430*	*3 337*	*1 833*
4	Quvasoy sh.	**5 100**	**2 540**	**2 560**	**1 275**	**648**	**627**		*2*	*5*			*6*	*10*	*18*	*9*	*9*	*40*	*20*	*20*	*22*	*11*	*11*	*1 172*	*585*	*587*	*2 762*	*829*	*1 933*	*1 063*
5	Beshariq t.	**5 500**	**2 749**	**2 751**	**1 375**	**708**	**667**							*46*	*31*	*15*	*16*	*125*	*62*	*63*	*15*	*7*	*8*	*1 158*	*578*	*580*	*2 979*	*895*	*2 084*	*1 146*
6	Bog‘dod t.	**5 600**	**2 835**	**2 765**	**1 400**	**757**	**643**						*53*	*67*	*95*	*47*	*48*	*336*	*167*	*169*	*450*	*223*	*227*	*399*	*200*	*199*	*3 033*	*911*	*2 122*	*1 167*
7	Buvayda t.	**5 500**	**2 774**	**2 726**	**1 375**	**733**	**642**						*35*	*63*	*124*	*61*	*63*	*315*	*157*	*158*	*216*	*107*	*109*	*622*	*310*	*312*	*2 979*	*895*	*2 084*	*1 146*
8	Dang‘ara t.	**5 900**	**2 954**	**2 946**	**1 475**	**765**	**710**						*21*	*38*	*41*	*20*	*21*	*51*	*25*	*26*	*30*	*15*	*15*	*1 294*	*646*	*648*	*3 196*	*960*	*2 236*	*1 229*
9	Yozyovon t.	**5 800**	**2 926**	**2 874**	**1 450**	**774**	**676**			*20*	*8*		*11*	*63*	*77*	*38*	*39*	*105*	*52*	*53*	*6*	*3*	*3*	*1 160*	*579*	*581*	*3 142*	*944*	*2 198*	*1 208*
10	Quva t.	**6 200**	**3 127**	**3 073**	**1 550**	**827**	**723**		*20*	*5*	*20*		*30*	*30*	*40*	*20*	*20*	*190*	*95*	*95*	*30*	*15*	*15*	*1 185*	*592*	*593*	*3 358*	*1 008*	*2 350*	*1 292*
11	Qo’shtepa t.	**5 300**	**2 774**	**2 526**	**1 325**	**808**	**517**	*18*	*30*	*6*	*24*	*15*	*12*	*190*	*82*	*40*	*42*	*235*	*117*	*118*	*105*	*52*	*53*	*608*	*304*	*304*	*2 871*	*862*	*2 009*	*1 104*
12	Oltiariq t.	**5 900**	**2 981**	**2 919**	**1 475**	**792**	**683**			*8*	*10*		*50*	*45*	*25*	*12*	*13*	*90*	*45*	*45*	*35*	*17*	*18*	*1 212*	*605*	*607*	*3 196*	*960*	*2 236*	*1 229*
13	Rishton t.	**6 000**	**3 032**	**2 968**	**1 500**	**806**	**694**			*25*	*10*	*10*	*48*	*25*	*62*	*30*	*32*	*85*	*42*	*43*	*10*	*5*	*5*	*1 225*	*611*	*614*	*3 250*	*976*	*2 274*	*1 250*
14	So’x t.	**5 200**	**2 607**	**2 593**	**1 300**	**678**	**622**			*9*		*10*	*18*	*22*	*55*	*27*	*28*	*200*	*100*	*100*	*120*	*60*	*60*	*866*	*432*	*434*	*2 817*	*846*	*1 971*	*1 083*
15	Toshloq t.	**6 100**	**3 076**	**3 024**	**1 525**	**813**	**712**					*20*	*67*	*21*	*27*	*13*	*14*	*1 241*	*618*	*623*	*23*	*11*	*12*	*126*	*63*	*63*	*3 304*	*992*	*2 312*	*1 271*
16	O‘zbekiston t.	**6 300**	**3 187**	**3 113**	**1 575**	**849**	**726**		*7*		*30*	*25*	*27*	*37*	*75*	*37*	*38*	*325*	*162*	*163*	*68*	*34*	*34*	*981*	*490*	*491*	*3 412*	*1 025*	*2 387*	*1 313*
17	Uchko’prik t.	**5 900**	**3 037**	**2 863**	**1 475**	**848**	**627**	*4*	*10*	*54*	*10*	*64*	*24*	*58*	*78*	*38*	*40*	*134*	*67*	*67*	*46*	*23*	*23*	*993*	*496*	*497*	*3 196*	*960*	*2 236*	*1 229*
18	Farg‘ona t.	**4 800**	**2 543**	**2 257**	**1 200**	**762**	**438**				*20*	*110*	*120*	*80*	*80*	*39*	*41*	*320*	*159*	*161*	*250*	*124*	*126*	*220*	*110*	*110*	*2 600*	*781*	*1 819*	*1 000*
19	Furqat t.	**6 100**	**3 086**	**3 014**	**1 525**	**823**	**702**		*8*		*16*		*50*	*50*	*83*	*41*	*42*	*156*	*78*	*78*	*69*	*34*	*35*	*1 093*	*546*	*547*	*3 304*	*992*	*2 312*	*1 271*

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-64-22-11-0-K/24-son qaroriga
4-ilova

2024 yilda qishloq xo‘jaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz parametrlari

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:		*jumladan:*																
			Doimiy	Mavsumiy	Agroklasterlarda	*shundan:*		Fermer xo‘jaliklarida	*shundan:*		Dehqon xo‘jaligi uchun yer ajratish *(Ye-auksion)*	*shundan:*		Takroriy ekin uchun g‘alladan bo‘shagan yer maydonlarini ajratish *(mavsumiy)*	Tomorqada bandlik (mavsumiy)	Pillachilik	*shundan:*		Suv xo‘jaligi ob’yektlari muhofaza zonasi atrofidagi yerlar hisobidan	*shundan:*	
						doimiy	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*				*doimiy*	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*
12	**Farg‘ona v.**	**173 662**	**17 139**	**156 523**	**5 509**	**1 074**	**4 435**	**33 452**	**4 564**	**28 888**	**14 971**	**4 990**	**9 981**	**13 040**	**16 425**	**87 785**	**6 360**	**81 425**	**2 480**	**151**	**2 329**
1	Farg’ona sh.	**1 268**	107	1 161	**0**			**272**	*30*	*242*	**231**	**77**	**154**	**103**	**130**	**532**		*532*			
2	Qo‘qon sh.	**0**	0	0	**0**			**0**			**0**			**0**	**0**	**0**					
3	Marg‘ilon sh.	**0**	0	0	**0**			**0**			**0**			**0**	**0**	**0**					
4	Quvasoy sh.	**4 761**	899	3 862	**70**	*20*	*50*	**796**	*329*	*467*	**1 010**	**337**	**673**	**208**	**262**	**2 334**	*208*	*2 126*	**81**	**5**	**76**
5	Beshariq t.	**13 972**	1 359	12 613	**334**	*87*	*247*	**2 507**	*369*	*2 138*	**974**	**325**	**649**	**947**	**1 192**	**7 798**	*565*	*7 233*	**220**	**13**	**207**
6	Bog‘dod t.	**12 951**	1 263	11 688	**401**	*73*	*328*	**2 345**	*311*	*2 034*	**1 160**	**387**	**773**	**982**	**1 237**	**6 638**	*481*	*6 157*	**188**	**11**	**177**
7	Buvayda t.	**11 121**	1 077	10 044	**419**	*84*	*335*	**2 414**	*274*	*2 140*	**1 052**	**351**	**701**	**946**	**1 192**	**4 958**	*359*	*4 599*	**140**	**9**	**131**
8	Dang‘ara t.	**12 066**	1 170	10 896	**432**	*60*	*372*	**2 442**	*372*	*2 070*	**831**	**277**	**554**	**876**	**1 103**	**6 207**	*450*	*5 757*	**175**	**11**	**164**
9	Yozyovon t.	**10 889**	1 065	9 824	**359**	*88*	*271*	**2 292**	*297*	*1 995*	**849**	**283**	**566**	**833**	**1 049**	**5 356**	*388*	*4 968*	**151**	**9**	**142**
10	Quva t.	**13 437**	1 169	12 268	**402**	*55*	*347*	**2 261**	*274*	*1 987*	**1 152**	**384**	**768**	**1 463**	**1 843**	**6 142**	*445*	*5 697*	**174**	**11**	**163**
11	Qo‘shtepa t.	**10 380**	974	9 406	**371**	*61*	*310*	**2 343**	*277*	*2 066*	**850**	**283**	**567**	**847**	**1 067**	**4 767**	*345*	*4 422*	**135**	**8**	**127**
12	Oltiariq t.	**11 140**	987	10 153	**370**	*73*	*297*	**2 348**	*277*	*2 071*	**768**	**256**	**512**	**1 050**	**1 322**	**5 137**	*372*	*4 765*	**145**	**9**	**136**
13	Rishton t.	**10 268**	964	9 304	**414**	*83*	*331*	**2 363**	*281*	*2 082*	**749**	**250**	**499**	**833**	**1 049**	**4 726**	*342*	*4 384*	**134**	**8**	**126**
14	So‘x t.	**2 843**	298	2 545	**0**	*0*		**397**	*38*	*359*	**467**	**156**	**311**	**237**	**299**	**1 403**	*102*	*1 301*	**40**	**2**	**38**
15	Toshloq t.	**12 069**	1 182	10 887	**412**	*82*	*330*	**2 209**	*291*	*1 918*	**944**	**315**	**629**	**732**	**922**	**6 662**	*483*	*6 179*	**188**	**11**	**177**
16	O‘zbekiston t.	**12 220**	1 174	11 046	**353**	*99*	*254*	**2 191**	*276*	*1 915*	**897**	**299**	**598**	**818**	**1 031**	**6 740**	*488*	*6 252*	**190**	**12**	**178**
17	Uchko‘prik t.	**11 739**	1 130	10 609	**384**	*87*	*297*	**2 254**	*280*	*1 974*	**913**	**304**	**609**	**811**	**1 021**	**6 181**	*448*	*5 733*	**175**	**11**	**164**
18	Farg‘ona t.	**13 862**	1 486	12 376	**448**	*57*	*391*	**2 312**	*462*	*1 850*	**1 152**	**384**	**768**	**823**	**1 037**	**7 870**	*570*	*7 300*	**220**	**13**	**207**
19	Furqat t.	**8 676**	835	7 841	**340**	*65*	*275*	**1 706**	*126*	*1 580*	**972**	**322**	**650**	**531**	**669**	**4 334**	*314*	*4 020*	**124**	**8**	**116**

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-64-22-11-0-K/24-son qaroriga
5-ilova

2024 yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz parametrlari

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:		jumladan:											
			Doimiy	Mavsumiy	Uy-joy qurilishi	Shundan		Sanaot korxonalar qurilishi	Shundan		Ijtimoiy ob’yektlar qurilishi	Shundan		Avtomobil va temir yo‘l qurilishi	Shundan	
						doimiy	mavsumiy		doimiy	mavsumiy		doimiy	mavsumiy		doimiy	mavsumiy
12	**Farg‘ona v.**	**11 172**	**3 863**	**7 309**	**6 320**	**2 062**	**4 258**	**1 442**	**521**	**921**	**2 150**	**860**	**1 290**	**1 260**	**420**	**840**
1	Farg‘ona sh.	**1 517**	**546**	**971**	*617*	*201*	*416*	*127*	*46*	*81*	*485*	*196*	*289*	*288*	**103**	**185**
2	Qo‘qon sh.	**1 058**	**380**	**678**	*639*	*207*	*432*	*223*	*81*	*142*	*105*	*42*	*63*	*91*	**50**	**41**
3	Marg‘ilon sh.	**584**	**199**	**385**	*456*	*149*	*307*	*40*	*15*	*25*	*53*	*21*	*32*	*35*	**14**	**21**
4	Quvasoy sh.	**526**	**178**	**348**	*301*	*98*	*203*	*113*	*41*	*72*	*73*	*29*	*44*	*39*	**10**	**29**
5	Beshariq t.	**386**	**126**	**260**	*254*	*83*	*171*	*48*	*17*	*31*	*58*	*23*	*35*	*26*	**3**	**23**
6	Bog‘dod t.	**484**	**161**	**323**	*392*	*128*	*264*	*9*	*3*	*6*	*53*	*21*	*32*	*30*	**9**	**21**
7	Buvayda t.	**621**	**218**	**403**	*325*	*106*	*219*	*78*	*28*	*50*	*135*	*54*	*81*	*83*	**30**	**53**
8	Dang‘ara t.	**417**	**139**	**278**	*322*	*105*	*217*	*20*	*7*	*13*	*48*	*19*	*29*	*27*	**8**	**19**
9	Yozyovon t.	**327**	**130**	**197**	*205*	*67*	*138*	*25*	*9*	*16*	*43*	*17*	*26*	*54*	**37**	**17**
10	Quva t.	**723**	**246**	**477**	*422*	*138*	*284*	*124*	*45*	*79*	*115*	*46*	*69*	*62*	**17**	**45**
11	Qo‘shtepa t.	**616**	**206**	**410**	*241*	*79*	*162*	*96*	*35*	*61*	*188*	*75*	*113*	*91*	**17**	**74**
12	Oltiariq t.	**589**	**198**	**391**	*266*	*87*	*179*	*169*	*61*	*108*	*105*	*42*	*63*	*49*	**8**	**41**
13	Rishton t.	**569**	**193**	**376**	*266*	*87*	*179*	*67*	*24*	*43*	*155*	*62*	*93*	*81*	**20**	**61**
14	So‘x t.	**281**	**96**	**185**	*36*	*12*	*24*	*11*	*4*	*7*	*155*	*62*	*93*	*79*	**18**	**61**
15	Toshloq t.	**335**	**118**	**217**	*169*	*55*	*114*	*17*	*6*	*11*	*93*	*37*	*56*	*56*	**20**	**36**
16	O‘zbekiston t.	**540**	**182**	**358**	*241*	*79*	*162*	*113*	*41*	*72*	*125*	*50*	*75*	*61*	**12**	**49**
17	Uchko‘prik t.	**689**	**237**	**452**	*460*	*150*	*310*	*84*	*30*	*54*	*88*	*35*	*53*	*57*	**22**	**35**
18	Farg‘ona t.	**615**	**210**	**405**	*470*	*153*	*317*	*70*	*25*	*45*	*43*	*17*	*26*	*32*	**15**	**17**
19	Furqat t.	**295**	**100**	**195**	*238*	*78*	*160*	*8*	*3*	*5*	*30*	*12*	*18*	*19*	**7**	**12**

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-64-22-11-0-K/24-son qaroriga
6-ilova

2024 yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning maqsadli ko‘rsatkichlari

№	Hududlar nomi	Jami banlik xizmatlarini ko‘rsatish	*jumladan:*						
			Kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish	*Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish*	*Ishga joylashtirish*	**Subsidiyalar ajratish***	*shundan:*		
							Bandlikka ko’maklashish jamg’armasi mablag‘lari hisobidan	*Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg’armasi mablag‘lari hisobidan*	*Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg’armasi mablag‘lari hisobidan*
Farg‘ona v.		**64 647**	**13 060**	**12 571**	**31 800**	**7 216**	**420**	**400**	**6 396**
1	Farg‘ona sh.	**5 081**	*904*	*805*	*2 650*	**722**	*25*	*25*	*672*
2	Qo‘qon sh.	**4 557**	*724*	*797*	*2 650*	**386**	*25*	*40*	*321*
3	Marg‘ilon sh.	**4 268**	*778*	*680*	*2 332*	**478**	*20*	*40*	*418*
4	Quvasoy sh.	**2 606**	*491*	*483*	*1 352*	**280**	*20*	*15*	*245*
5	Beshariq t.	**3 233**	*694*	*705*	*1 458*	**376**	*22*	*20*	*334*
6	Bog‘dod t.	**3 296**	*699*	*690*	*1 484*	**423**	*18*	*15*	*390*
7	Buvayda t.	**3 418**	*851*	*743*	*1 458*	**366**	*23*	*15*	*328*
8	Dang‘ara t.	**3 072**	*594*	*680*	*1 563*	**235**	*21*	*15*	*199*
9	Yozyovon t.	**2 553**	*537*	*284*	*1 536*	**196**	*23*	*15*	*158*
10	Quva t.	**3 936**	*910*	*680*	*1 643*	**703**	*18*	*15*	*670*
11	Qo‘shtepa t.	**3 057**	*644*	*680*	*1 404*	**329**	*23*	*15*	*291*
12	Oltiariq t.	**3 163**	*640*	*645*	*1 563*	**315**	*20*	*15*	*280*
13	Rishton t.	**3 390**	*654*	*697*	*1 590*	**449**	*20*	*40*	*389*
14	So‘x t.	**2 793**	*467*	*602*	*1 378*	**346**	*27*	*15*	*304*
15	Toshloq t.	**3 300**	*750*	*614*	*1 617*	**319**	*22*	*15*	*282*
16	O‘zbekiston t.	**3 514**	*760*	*703*	*1 670*	**381**	*20*	*15*	*346*
17	Uchko‘prik t.	**3 084**	*604*	*697*	*1 563*	**220**	*25*	*15*	*180*
18	Farg‘ona t.	**3 228**	*865*	*693*	*1 272*	**398**	*26*	*40*	*332*
19	Furqat t.	**3 098**	*494*	*693*	*1 617*	**294**	*22*	*15*	*257*

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-64-22-11-0-K/24-son qaroriga
7-ilova

Yangi moliyaviy xizmat turlarini joriy qilish, shu jumladan mikromoliyalashni kengaytirish orqali 2024 yilda 181 ming nafar aholini biznesga jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari

T/r	Mas’ul bank	Hududlar	Jami	*shundan,*			
				o‘zini o‘zi band qilish hisobiga	yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga	yangi korxonalar hisobiga	Dehqon xo‘jaliklari hisobiga
Jami			**181 000**	**84 000**	**10 700**	**8 300**	**78 000**
1	"Biznesni rivojlantirish banki" ATB	*Farg‘ona sh.*	*9 030*	*7 000*	*1 000*	*430*	*600*
2		*Qo‘qon sh.*	*8 380*	*7 000*	*1 000*	*380*	
3		*Marg‘ilon sh.*	*7 400*	*6 160*	*900*	*340*	
4		*Quvasoy sh.*	*6 470*	*3 570*	*400*	*300*	*2 200*
5		*Beshariq t.*	*11 150*	*3 850*	*500*	*500*	*6 300*
6		*Bog‘dod t.*	*10 720*	*3 920*	*500*	*500*	*5 800*
7		*Buvayda t.*	*9 800*	*3 850*	*500*	*450*	*5 000*
8		*Dang‘ara t.*	*10 530*	*4 130*	*500*	*500*	*5 400*
9		*Yozyovon t.*	*9 960*	*4 060*	*500*	*500*	*4 900*
10		*Quva t.*	*11 340*	*4 340*	*500*	*500*	*6 000*
11		*Qo‘shtepa t.*	*9 310*	*3 710*	*500*	*400*	*4 700*
12		*Oltiariq t.*	*10 130*	*4 130*	*500*	*500*	*5 000*
13		*Rishton t.*	*9 700*	*4 200*	*500*	*400*	*4 600*
14		*So‘x t.*	*5 640*	*3 640*	*400*	*300*	*1 300*
15		*Toshloq t.*	*10 670*	*4 270*	*500*	*500*	*5 400*
16		*O‘zbekiston t.*	*10 910*	*4 410*	*500*	*500*	*5 500*
17		*Uchko‘prik t.*	*10 330*	*4 130*	*500*	*500*	*5 200*
18		*Farg‘ona t.*	*10 460*	*3 360*	*500*	*400*	*6 200*
19		*Furqat t.*	*9 070*	*4 270*	*500*	*400*	*3 900*

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining
2024-yil 5-fevraldagi
VI-64-22-11-0-K/24-son qaroriga
8-ilova

2024 yilda davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan subsidiyalar ajratishning maqsadli ko‘rsatkichlari

T/r	Hudud nomi	Jami	*shundan,*		
			Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi	**Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi**	**Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi**
Farg‘ona v.		**46 024**	**36 203**	**5 741**	**4 080**
1	Farg‘ona sh.	3 858	3 466,6	229	162
2	Qo‘qon sh.	2 528	1 831,3	407	289
3	Marg‘ilon sh.	2 336	1 778,8	326	231
4	Quvasoy sh.	1 280	968,4	182	130
5	Beshariq t.	1 415	1 100,3	184	131
6	Bog‘dod t.	3 732	2 479,1	732	520
7	Buvayda t.	2 174	990,3	692	492
8	Dang‘ara t.	1 818	1 424,3	230	164
9	Yozyovon t.	2 408	1 967,0	258	183
10	Quva t.	5 484	4 998,0	284	202
11	Qo‘shtepa t.	1 610	1 261,4	204	145
12	Oltiariq t.	2 581	2 075,6	296	210
13	Rishton t.	3 407	2 989,3	244	174
14	So‘x t.	1 373	1 058,4	184	131
15	Toshloq t.	1 305	1 061,1	142	101
16	O‘zbekiston t.	2 299	1 748,2	322	229
17	Uchko‘prik t.	1 864	1 287,3	337	239
18	Farg‘ona t.	2 472	2 089,2	224	159
19	Furqat t.	2 081	1 628,3	264	188